



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI

TILNING MA'LUMOTLARNI SAQLASH VA YETKAZISH FUNKSIYASI FUNCTION OF THE LANGUAGE OF INFORMATION STORAGE AND TRANSMISSION

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/HOUE9092](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/HOUE9092)

Xolmanova Zulxumor Turdiyevna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
professori, filologiya fanlari doktori
xolmanovazulxumor8@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilining qadimiy va boy ekanligi tavsiflanib, tarixiy ildizlari, nomlanish tadriji asoslangan. Keng imkoniyatlari, buyuk mutafakkirlar tomonidan tilga olingan muhim xususiyatlari yoritilgan. O'zbek tilining dunyo tillari orasida o'z o'rniga egaligi, nufuzi va mavqeyi ortib borayotgani qayd etilgan. Dunyoda mavjud tillarning ijtimoiy funksiyalari bir xil emasligi, jamiyatga xizmat qilish imkoniyatlari jihatidan farqlanishi tahlil etilgan. O'zbek tilining "tez fahm va baland idrok" xalq tili sifatida o'ziga xos tafakkur mahsullarini, tarix, madaniyat, ijtimoiy-madaniy munosabatlar haqida muhim ma'lumotlarni to'plashi, yetkazishi ko'rsatib berilgan. Tilning ma'lumotlarni to'plash va uzatish funksiyasi alohida monografik yo'nalishda tadqiq etilishi lozimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: tilning ijtimoiy vazifasi, to'plash, yetkazish funksiyasi, tafakkurni rivojlantirish funksiyasi, kuzatish, tajriba, tarixiy ma'lumot, tibbiy ma'lumot, leksema, frazema.

Annotation. The article explores the antiquity and richness of the Uzbek language, examining its historical roots and the history of its name. It emphasizes its broad capabilities and important features noted by great thinkers. It notes that the Uzbek language occupies a distinctive place, status, and influence among the world's languages. The social function of languages varies across the world, and their ability to serve society varies. It has been shown that the Uzbek language, as a national language of "quick comprehension and high perception," collects and transmits unique intellectual products, important information about history, culture, and socio-cultural relations. It is emphasized that the function of language to collect and transmit information should be studied in a separate monographic context.



Keywords: *social function of language, collection, communicative function, function of developing thinking, observation, experience, historical information, medical information, lexeme, phrase.*

O'zbek tili o'zbek xalqi, millatining mavjudlik sharti, birlamchi milliy-madaniy ramzidir. Kishilik jamiyati taraqqiyotida dunyo tillari turli darajada va o'ziga xos yo'nalishlarda rivojlanib kelmoqda. Hozirgi kunda dunyoda 7 mingdan ortiq til mavjudligi qayd etiladi. Mazkur tillarning jamiyatdagi funksiyasi, muloqotni ta'minlash vazifasi bir xil emas.

O'zbek tili dunyo tillari orasida o'z o'rniga ega. Garchi o'z yozuviga ega bo'lmasa-da, me'yorlashtirilgan til sifatida rivojlanib bormoqda va jamiyatga adabiy til va sheva ko'rinishida xizmat qilmoqda. Yangi O'zbekiston strategiyasi, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy islohotlar bu tilning dunyo miqyosidagi mavqeyini oshirishga zamin yaratmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan yangrashi o'zbek tilining xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir", deb e'tirof etdilar. O'zbek tili qadimiy tillardan hisoblanib, hozirga qadar bir necha nomlar bilan yuritilib kelgan.

O'zbek xalqining va tilining tarixiy nomlanishi haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda saqlanib qolgan. Qadimgi turkiy xalqlar ahamoniylar bitiklarida *saklar* deb yuritilgani, yunon manbalarida *skiflar* nomi bilan tilga olingani, "Avesto"da *turlar* deb atalib, ularning yurti Turon deyilgani haqida qaydlar mavjud.

O'zbek xalqi va tilining dastlabki nomlaridan biri bo'lgan *turk* atamasining "urug'", "elat", "mamlakat", "bahodir", "kuchli", "qudratli", "mahoratli jangchi", "dubulg'a", "sodda va to'g'ri" kabi ma'nolari e'tirof etilgan. Bu atama, asosan, X asrlargacha keng qo'llangan bo'lib, o'zbek tili mazkur nomda qadimgi turk xoqonligi davrida rivoj topgan.

X – XII asrlarda o'zbek xalqi va tili *sart* atamasi bilan yuritilgan. *Sart* qadimgi sanskrit tilidan olingan "karvonboshi", "savdogar", "shaharlik", "ziyoli" ma'nosidagi so'zning asosi hisoblanadi. *Savdogar* so'zining "ziyoli", "madaniyatli" ma'nolari Yusuf Xos Hojib ta'rifida o'z ifodasini topgan. Buyuk ijodkor *sart* atamasining ma'nodoshlaridan bo'lgan savdogarlar haqida so'z yuritar ekan, "eldan elga eltuvchi" sifatlashini ishlatadi. Bu bilan shu hunar sohiblarining yangilik, ziyo ulashishlariga ishora qiladi. *Sart* atamasi ilk marta Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida uchraydi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida *sart* so'zi "savdogar" ma'nosida qo'llangan: *Sartning azuqi ariğ bōlsa yōl uzra yer* (Savdogarning moli pok bo'lsa yo'l uzra yeydi). Bu misoldan savdogarlar o'sha davrlarda, asosan, oziq-ovqat yetkazish bilan shug'ullanganini anglash mumkin. Bu hikmat hozirgi o'zbek tilidagi "Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich" maqoli mazmuni bilan hamohangdir.



Sart atamasi etnik nom sifatida hozirgi kunda ham qozoqlar, qirg'izlar nutqida o'zbeklarga nisbatan ishlatiladi.

Mo'g'ullar istilosidan keyin Movarounnahr *chig'atoy* hududi, o'zbek xalqi *chig'atoy* ulusi, o'zbek tili *chig'atoy tili* nomi bilan yuritilgan. *Sart* atamasi esa bu davrda etnik nom sifatida fors-tojiklarga va ularning tiliga nisbatan qo'llangan. Alisher Navoiy va Bobur asarlarida *sart* atamasi fors-tojiklarni va ularning tilini ifoda etgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida ruslar istilosi davrida qadimgi slavyan tilidan olingan *sart* atamasi butun O'rta Osiyo aholisiga nisbatan qo'llangan. Bu so'z "ongsiz", "maxluq" ma'nosini ifodalab, mahalliy aholiga nisbatan salbiy munosabatni ifodalagan. Mahmudxo'ja Behbudiy *sart* so'zini *marquq* so'zining ma'nosi tarzida izohlab, bu so'zning qo'llanishini qoralagan edi. Chingiz Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" asaridagi manqurt obrazi *sart* so'zining ma'nosiga mos qiyofani ko'rsatib bergan. XX asrning boshlaridagi shu so'z ishtirok etgan nomlanishlar *sart* so'zining ma'lum davrda O'rta O'siyo xalqi va ularning tillariga nisbatan nohaq ravishda qo'llanganini ko'rsatadi.

O'zbek atamasi ham o'z shakllanish tarixiga ega. Manbalarda *o'zbek* so'zining paydo bo'lishi turkiy qabilalardan bo'lmish *uz* (*o'z*)lar bilan bog'langan. Bu so'zni "qabila boshlig'i" ma'nosidagi *o'g'iz begi* birikmasining qisqargan shakli sifatida talqin etgan qarashlar ham bor. *O'zbek* atamasining shakllanishini shu nomdagi mard, bahodir sarkarda va uning yetagidagi harbiylarga bog'lash ham kuzatiladi.

O'zbek so'zining o'zagi *o'z* hisoblanadi. Bu asos hozirgi *o'zak*, *o'z* (*o'zlik* olmoshi) va shu kabi bir qator leksemalarning asosi sifatida ishlatiladi. "O'zbek tilining izohli lug'atida" *o'z* asosidan shakllangan ellikka yaqin lug'aviy birlik qayd etilgan [O'TIL,2008: 136-139]. Bu birliklar *o'z* asosiga aloqador semantikani namoyon etgan. *O'zbek* atamasi tarkibidagi *o'z* "shaxs", "xoslik", "ildiz" ma'nolarini ifoda etadi. Shuningdek, "ilg'or bo'lish", "ustun bo'lish" ma'nosidagi *o'z-* fe'l asosiga ham aloqador.

O'zbek tilining keng imkoniyatlari ajdodlarimiz tomonidan ko'p bora e'tirof etilgan. Mahmud Koshg'ariy mazkur tilni "arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, o'zib borayotgan til" sifatida ulug'laydi. Turkiy so'zlarni to'plab, katta hajmdagi lug'aviy boylikni taqdim etgan. 7500dan ortiq turkiy so'z va ibora, barqaror birikmalarning ma'nosini izohlagan. Yusuf Xos Hojib "*Ölügdin tirigkä qumaru söz ol* (O'likdan tirikka meros bu so'z) deb, tilning inson hayotidagi muhim o'rniga yuqori baho bergan. Alisher Navoiy turkiy tilning keng imkoniyatlarini "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida nazariy jihatdan asoslab berdi. *Sart* tili (fors-tojik tili)ga qiyoslab, undan qolishmasligi, balki afzal jihatlarga ega ekanligini isbotlab berdi. "Muhokamat ul-lug'atayn"da Alisher Navoiyning fonetika, leksikologiya, morfologiya, so'z yasalishi, sintaksisga oid qarashlari o'z ifodasini topgan. Buyuk mutafakkir sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslikka oid nazariy masalalarni birinchilardan bo'lib yoritgan tilshunos sifatida namoyon bo'lgan. Turkiy tilning ijod tili sifatida ham o'ziga xos



imkoniyatlarga ega ekanligini asoslab berdi: “*Turk nozimlari (shoirlari) o‘z alfozlari bilan she‘rg‘a mashg‘ulluq qilg‘aylar va ko‘ngul g‘unchasi dog‘idinki, pechlar chirmanibdur, bahor nasimidek anfos bila guldek ochilg‘aylar*” [Navoiy, 1987 – 2003, 38].

Til murakkab ijtimoiy, fiziologik, biologik hodisa. Til fikr ifodalash vositasi sifatida ko‘p qirrali ijtimoiy funktsiya bajaradi. Tilning aloqa-munosabat, hissiy ta‘sir, to‘plash vazifalarida tafakkurning ishtiroki kuzatiladi. Tilning kommunikativ funktsiyasi bir qator ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Fatik, relyatsion (muloqotning davomiyligi), apellyativ, konotativ (empatiya bilan bog‘liq ma‘lumotlarni assimilyatsiya qilish), yo‘naltiruvchi (reallikni tasvirlash), epistemik (madaniy an‘analar haqidagi bilimlarni saqlash va uzatish vazifasi)da o‘z ifodasini topadi. Aksiologik (baholash funktsiyasi), nominativ (nomlash funktsiyasi), predikativ (ma‘lumotlarni reallik bilan asoslash) vazifalari kognitiv funktsiyasi hisoblanadi.

Tafakkur va til munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o‘z navbatida fikr til asosida yuzaga keladi. O‘zbek tili ijtimoiy hodisa sifatida xalqning tafakkur tarzi, voqelikka munosabati va reallikni baholash xususiyatlarini o‘zida namoyon etadi.

XX asr boshlarida jadid ma‘rifatlari o‘z chiqishlarida turkiy tilni asrab qolish, ilmiy va badiiy til sifatidagi imkoniyatlarini kengaytirish masalasini kun tartibiga qo‘ydilar. Abdurauf Fitrat turkiy tilning boy ekanligini ta‘kidlaydi. “Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha... Bir tilning boylig‘i u tildag‘i so‘zning ko‘bligi (kasrati kalimat), undirik kengligi (vus‘ati ishtiyoq), yusup tugalligi (mukammaliyati qavoyid) bilan bo‘lur”ini aytib o‘tgan [Fitrat, 2006:124]. Fitrat turkiy tilning boyligini ilmiy jihatdan asoslagan. *Kasrati kalimat* – tilning lug‘at qatlami, uning boyligi, *vus‘ati ishtiyoq* – so‘z yasalishi, *mukammaliyati qavoyid* – til grammatik qoidalarining mukammalligi [Fitrat, 2006:324] asosida dalillagan.

Alisher Navoiy turkiy xalqlarni “tezfahm, baland idrok” deb sifatlaydi. Vengr olimi, sharqshunos Arminiy Vamberi “turkiylarning o‘z bilimdonliklari bilan dunyoni hayratga solgan”ini e‘tirof etadi. O‘zbek xalqining tafakkuri, aqliy salohiyati tilida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbek tilining tafakkurni rivojlantirish vositasi va yuksak darajadagi aql-idrok mahsuli ekanligi ko‘p ma‘noli so‘zlarda, ko‘chma ma‘noning, darajaning ifodalanishida, omonim, sinonim birliklarda namoyon bo‘ladi. Tuyuq, askiya janrlari, musoviyattarafayn, iyhom, tajnis, ta‘rix masnu‘ san‘atlari, abjad hisobi xalqimizning aql-idroki mahsulidir. Maqollar va iboralar xalqimiz tafakkurining betakror namunalarini sifatida boshqa xalqlarni ham hayratga solib kelmoqda.

O‘zbek tili birliklarida lug‘aviy ma‘no ifodalash bilan bir qatorda xalq tarixiy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga xos muhim ma‘lumotlar ham saqlanib qolgan. O‘zbek tili birliklarida: tarixiy ma‘lumotlar; kuzatish va tajriba; tibbiy jarayonlar; milliy-madaniy munosabatlar, qadriyatlar o‘z ifodasini topgan. Masalan, *otlanmoq* so‘zi ot transport vositasi sifatida qo‘llangan davrlarga oiddir.



Xomcho tlamog so‘zi rus tilidan o‘zlashgan *uĕm* so‘zidan fonetik moslashtirilgan holda yasalgan. O‘zbek shevalaridagi *O‘runburundan kelmoq* (*Orenburgdan kelmoq*, yaqin masofada turib kech qolgan shaxsga nisbatan ishlatiladi) frazemasini [Xolmanova, 2022] iborasi rus istilosining boshlang‘ich davrlari bilan aloqador.

Tulki metaforasi, *tulkiday* o‘xshatishi o‘zbek xalqining kuzatishlari, tajribasi asosida yuzaga kelgan. Tulkining tanasidagi hasharotlardan uddaburonlik bilan tozalanishi, tipratikanni hiyla ishlatib, iste‘mol qilishi bu so‘zni “ayyor”, “hiylagar” ma’nolarida qo‘llashga asos bo‘lgan. Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy ijodida qo‘llangan *tulki* so‘zidagi “tadbirkorlik, uddaburonlik” ijobiy semasi hozirgi vaqtga kelib “ayyor”, “hiylagar” ma’nosidagi salbiy bahoni aks ettiradi.

Kungaboqar so‘zining nomlanishida ham o‘zbek xalqining kuzatishlari o‘z ifodasini topgan. Mazkur o‘simlikning quyosh harakati asosida rivojlanishi o‘zbek xalqining sinchkov tabiati, teran idrokini namoyon etadi. Inglizlar ushbu o‘simlikni shakli, ko‘rinishiga qarab nomlashgan.

O‘zbek tili lug‘aviy birliklarida tibbiy ma’lumotlar ham o‘z ifodasini topgan. *Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq*, *tepa sochi tikka bo‘lmoq* frazemalari tushuncha ifodalashdan tashqari insoning tabiiy va ruhiy holatini ham aks ettiradi. *Tepa sochi tikka bo‘lmoq* barqaror birikmasi insonning jahli chiqqan holatda boshdagi yuqori nuqtaning sezgirligini ta’kidlashga xizmat qilgan.

Qadimgi turkiy tilda qo‘llangan *bušaqliq* (*bušaqlıq*), *öwkä* so‘zlari “qahr, g‘azab” ma’nosini anglatadi: *Bušaqliq bilä erkä öwkä yawuz, bu ekki bilä tutĕi emgär et öz* – Qahr bilan g‘azab kishi uchun yovuz dushmandir, bu ikkalasi bilan jon doim aziyat chekadi [Xolmuradova, 2019]; *bušaqliq – öwkä* “qahr, g‘azab” so‘zlari shaxsning salbiy belgi-xususiyatini ifodalaydi. Mahmud Koshg‘ariyda *öpkä* so‘zi “g‘azab” ma’nosida izohlangan [Koshg‘ariy, 1960:148]. Uning shunday aytilishiga sabab g‘azabning o‘pkada paydo bo‘lishidir. Bu so‘zning shu ma’noda qo‘llanishi so‘zning paydo bo‘lish o‘rniga asoslangan

O‘pka I 1 *anat.* Odam va quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarning ko‘krak qafasi ichiga joylashgan bir juft, konus shaklidagi nafas olish a‘zosi. *O‘pka* so‘zi ko‘chma ma’nolarda “o‘zini bosolmaydigan, hovliqma shaxslarga nisbatan, odatda, ularning ismiga qo‘shib (tirkab) ishlatiladi” [O‘TIL,2008: 158].

O‘pka birligi asosida bir necha frazemalar yuzaga kelgan bo‘lib, o‘ziga xos kognitiv ma’lumot va milliy-madaniy munosabatlarni, xalq bahosini aks ettiradi. *O‘pkasi shishmoq* barqaror birikmasi jahl chiqish holatini anglatadi, *o‘pkasini bosmoq* unga zid o‘laroq “hovliqish, jahl kabilardan o‘zini tiymoq” ma’nosida qo‘llanadi. *O‘pka* so‘zi va shu so‘z ishtirokidagi frazemalar tahlili orqali inson g‘azablanganda o‘pka faoliyatida o‘zgarish bo‘lishi, me’yoriy holat buzilishi haqida xulosa qilish mumkin. So‘z va lug‘aviy birliklar nafaqat g‘azabning, balki boshqa tuyg‘ularning ham o‘pka bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘pka “gina”, “kek” ma’nosida ham qo‘llanadi. Demak, gina-kudurat ham o‘pkada paydo bo‘ladi. *O‘pka* II “O‘ziga nisbatan bo‘lgan nomaqbul ish, xatti-harakat va shu kabilardan ranjish holati, xafalik va uni bildiruvchi gap-so‘z; gina”;



o'pka-gina “o'pkalash, kek saqlash; ginaxonlik”. Shu ma'nodagi *o'pka* so'zidan yasalgan *o'pkalamoq* “o'pka, gina ifodalovchi gap-so'z aytmoq, o'zini o'pkaginali holatda tutmoq” ma'nosini bildiradi. Bu holat *o'pka qilmoq* qo'shma fe'li orqali ham ifodalanadi.

O'pka o'zbek xalqi tafakkurida inson ruhiy holatini, uning g'azablanishi, hovliqishini nazorat qilib turadigan a'zo hamdir. *O'pkasi yo'q* frazemasida shu baho munosabati o'z ifodasini topgan. *O'pkasi yo'q* – “o'ta hovliqma, fikr-mulohaza bilan ish yuritmaydigan” [O'TIL,2008:158];

O'pkasi ko'rinmoq – “biror narsa dardida nihoyat darajaga yetganlik, juda holdan toyganlikni bidiruvchi ibora” [O'TIL,2008:158]. *O'pka ko'krak qafasi* bilan o'ralgan bo'lib, ko'rinish ehtimoli kam bo'lgan a'zo hisoblanadi. *O'pkasi ko'rinmoq* frazemasida ko'rish mumkin bo'lmagan a'zoning “ko'rinishini” ifodalash orqali ta'sirchanlik oshirilgan. Darajani o'zbek tili uslubiga xos tasavvur qilib bo'lmaydigan holat bilan ifodalash usulidan foydalanilgan. *O'pkasi (og'ziga) tiqilmoq* frazemasida insonning jismoniy holati bilan bog'liq jarayonni, tez yurish, yugurish, qo'rquv bilan harakat qilish davomidagi zo'riqishni ifodalaydi. *O'pkasi to'lmoq* frazemasida shaxsning ruhiy, o'ksiganlik holatini ifodalab keladi [O'TIL,2008:158]; *O'pkasini tutolmaslik* ruhiy holatning yuqori darajasini ifodalaydi, ya'ni o'pka “to'lib, tosha boshlaydi”, “yig'ini tiya olmaslik” yuzaga keladi. Shoshgan, hovliqib harakat qilgan shaxsga nisbatan *o'pkasini qo'litiqlamoq* frazemasida ishlatiladi. Ushbu barqaror birikma ham o'pka bezovtaligining yuqori darajasini aks ettirgan.

Bayir “jigar” so'zi “yaqin” tushunchasini ifodalaydi. Bu so'z “yurakka yaqin” a'zoni bildiradi. Qarindoshlarga, aka-uka, opa-singillarga nisbatan *jigar* so'zining qo'llanishi “yaqin” semasiga asoslangan. A.Kasiyeva “Qutadg'u bilig”dagi metaforalarning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish mobaynida [Kasiyeva, 2005] metaforani yuzaga keltiruvchi ayrim so'zlar etimologiyasida ham to'xtalgan. Jumladan, olim asarda qo'llangan *bayirsaq* va *tapuychi* so'zlariga shunday izoh bergan: “Metafora bag'yrsaq tapuychi – “сердечный слуга – сердце”, bag'yr [печень], в русском переводе “ближе сердце в груди”, а в англ. “[его] держи близко к груди”. [Kasiyeva, 2006 A.Kasiyeva mulohazalarida *bag'yr* “jigar” leksemasining “yaqinlik” semasi anglashiladi, ya'ni *bag'yr* “jigar” ko'krak qafasida yurakka eng yaqin a'zo sifatida tilga olingan. Olima talqinlaridan insonning bu yorug' olamdagi eng yaqinlari – og'a-ini, opa-singillari “jigar”ga nisbatlanish sabablari ayon bo'ladi [Xolmanova, 2019:21].

Hozirgi o'zbek tilida shaxsning nufuzi, martabasini anglatib keluvchi *obro'* leksemasi forsha-tojikcha *ob* (suv) va *ro'* (yuz) asoslaridan tashkil topgan. “Qutadg'u bilig”da insonning *obro'si yuz suvi* “yuz suvi” qo'shma so'zi orqali ifodalangan: *Otunqa qatilma ey asli ariy, yuziynun suwin eltgä sendin ariy* – Tubanga aralashma, ey asli toza, sendan yuzingning suvini pok-pokiza olib ketadi [ya'ni tuban sening obro'yingni to'kadi]. Asarda *yuzi süvlan*= frazemasida “obro' qozonmoq” ma'nosini ifodalagan. Qipchoq shevalarida “betini suvini besh to'kib” degan ibora qo'llanadi. Bu frazemada *bet suvi* deganda “obro', e'tibor” nazarda



tutilgan [Xolmanova, 2019:136]. Tibbiyotda inson yuzining namlanib turishi, yosh sog'lom insonlarda yuz suvli bo'lishi haqidagi ma'lumotlar qayd etiladi. *Yuz suvi*ning kamayishi va yuzning qurishi qarilik belgisi sifatida ajin tushishiga olib keladi. Frazemada ana shu tabiiy holatning ko'chma ma'nosidan foydalanilgan va *yuz suvi* birligiga "ko'zga ko'rinarlilik", "qiymat" semalari yuklangan.

Xalq shoirlari ijodida *Suvdan ko'tardim ko'za, Ko'zada oltin g'oz*a misralari uchraydi. Ushbu misralardagi *oltin g'oz*a birikmasi xalqimizning madaniy taraqqiyoti haqida ma'lumot beradi. *Oltin g'oz*a – *oltin g'oz*a – suv tarkibidagi qum, loy, turli ma'danlar aralashmasidan iborat qorishma yuzga surtilganidan dalolat beradi. Hozirda ham ayrim hududlarda suv idishdagi cho'kmalardan yuzga surtma sifatida foydalaniladi. *Oltin g'oz*a – hozirgi kunda xorijdan keltirilgan mahsulot sifatida targ'ib qilinayotgan *Golden cosmetics* mahsulotining tabiiy ko'rinishidir.

Alisher Navoiy misralarida muayyan urf-odat, an'analar haqidagi faktik ma'lumotlar ham uchraydiki, ular ayrim urflar haqidagi og'zaki ijod namunalari orqali yetib kelgan ma'lumotlarni asoslaydi:

Tutulsa birav o'g'ridur deb kuchun

Tutubon ilik, lek kesmak uchun [Navoiy, 1988:240]. Bu baytda o'zbek xalqining o'g'irlikka, birovning mulkiga ko'z olaytirish harakatiga munosabati, ya'ni uning barmog'ini kesish odati o'z aksini topgan.

Ko'z uchishi va bu holatga biror hodisaning belgisi sifatida qarash xalqimizda hozir ham uchraydi. An'anaviy qarashlarga ko'ra, halol hayvonlar (tovuq, qo'y, sigir) bilan nomlangan muchaldagi shaxslarning o'ng ko'zi uchishi, harom hisoblangan hayvonlar (it, maymun, ilon) bilan nomlangan muchaldagi shaxslarning chap ko'zi uchishi xayrli voqelikdan, aksincha holat ko'ngilsiz hodisadan darak beradi, deb qaraladi. Alisher Navoiyning mazkur bayti bu irimning XV – XVI asrlarda ham mavjud bo'lganini ko'rsatadi:

Ko'zum uchadur, magarki yorim keladur,

Es har dam ozar, magar nigorim keladur [Navoiy, 1988:242]. Baytda lirik qahramon ko'zining uchishi xayrli voqelikka, yorning kelishiga ishora qilgan.

Ko'z uchishining muayyan jarayon, harakat-holat bilan bog'lanishi psixologlar tomonidan inson ruhiyati, ma'lum ko'ngilli yoki ko'ngilsiz holatga tayyorlanish oqibatidagi tasodifiylik, deb baholansa-da, uning o'ziga xos murakkab, izohlash qiyin bo'lgan hodisa ekanligini ham inkor etib bo'lmaydi.

Alisher Navoiy asarlari falsafiy mushohadalarga, purma'no so'zlarga, chuqur mantiqiy xulosalarga boy bo'lishi bilan bir qatorda sharq xalqlariga xos madaniy munosabatlar, urf-odat, an'analarni yoritishda ham muhim o'rin tutadi.

O'zbek xalqida *it hurar – karvon o'tar*, degan maqol ishlatiladi. Bu maqol shaxs (karvon) va uning faoliyatiga qarshi tomon (it) zidligiga asoslangan mazmun sifatida qabul qilinadi. Abdulla Oripovning mashhur to'rtligi ham shu mazmunga asoslangan:

Deydilar: "It hurur – o'tadi karvon,
Ranj-u malomatda yonmasin joning".



Lekin alam qilar bir umr giryon –
Itlar orasidan o‘tsa karvoning.

Lutfiy, Alisher Navoiy ijodida qayd etilgan “it uyub qoldi – ko‘chdi karvon”, “Karvondin qolg‘on it yanglig‘ qilg‘ay nolalar” degan misralar voqelikning aslida o‘zgacha mazmuni ifodalashini ko‘rsatadi. Qayd etilgan misralarga ko‘ra itlar karvon bilan birga yurgani, ularni qo‘riqlash vazifasini bajargani ma‘lum bo‘ladi. Itning hurishi karvondan, aniqrog‘i – karvon o‘tayotganidan xabar beruvchi belgi sifatida qaralgan.

Tilshunoslar olimlar tomonidan til tarixni aks ettiruvchi eng muhim vosita sifatida tavsiflangan. Darhaqiqat, til – tarixning jonli guvohidir. O‘zbek tilining ma‘lumotlarni yetkazish funksiyasi alohida tadqiqot mavzusi sifati chuqur va atroflicha tadqiq etilmog‘i lozim. Chunki buyuk xalqning qudratli tili ma‘no qatlamlarida muhim tarixiy, ilmiy, mifologik, diniy qarashlarni mujassam etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурауф Фитрат. Тилимиз. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006.
2. Аlisher Navoiy. Topmadim. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
3. Аlisher Navoiy. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 16-том. Тошкент, 1987-2003.
4. Касиева А. Лексико-семантический анализ метафор “Кутадгу билиг”. – Бишкек, 2005.
5. Касиева А. Антропоморфная метафора в поэме “Кутадгу билиг” и особенности перевода ее на английский язык // *Sosyal Bilimlar Dergisi*. Sayi: 15, 2006.
6. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент, 1960.
7. Xolmanova Z., Nasriyeva D. O‘zbek shevalaridagi lakunar birliklar lug‘ati. – Toshkent, 2022.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – 592 б.
9. Холмурадова М. “Кутадгу билиг” лексикаси. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ...дисс. – Тошкент, 2019. – 160 б.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Iy7hDzQAAAAJ&citation_for_view=Iy7hDzQAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAJ&citation_for_view=aiGGU2YAAAAJ:YsMSGlbcyi4C
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=gHnKX3EAAAAJ&citation_for_view=gHnKX3EAAAAJ:kNdYIx-mwKoC
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=oSSeGakAAAAJ&citation_for_view=oSSeGakAAAAJ:u5HHmVD_uO8C
https://www.researchgate.net/publication/371445473_O'zbek_tili_va_adabiyoti_jurnali.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deytik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obyektı sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774